

**O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi huzuridagi Jamoatchilik
kengashi yig‘ilishining**

BAYONI

2024- yil 28- oktabr

3-son

Toshkent shahri

Raislik qildi: Y.A. Abdullayev – Jamoatchilik kengashi raisi.

Qatnashdilar: Jamoatchilik kengashi a‘zolari, Statistika agentligi direktori o‘rinbosarlari va tegishli tarmoq boshqarma boshliqlari.

KUN TARTIBI:

I. Statistika agentligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi faoliyatining 2024-yil III chorak yakuni bo‘yicha tahlili;

II. “2024-yil uchun Statistika dasturi” doirasida 2024- yil III chorak yakuni bo‘yicha bajarilgan ishlar to‘g‘risida;

III. Xalqaro hamkorlik va axborot almashinuvi hamda Milliy barqaror rivojlanish maqsadlari bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar;

IV. Aholini ro‘yxatga olish ishlariga tayyorgarlik ko‘rish va ularni amalga oshirish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar;

V. Statistika agentligi faoliyatida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida olib borilayotgan ishlar holati tahlili;

VI. Ijro intizomi bo‘yicha III chorak yakuni bo‘yicha bajarilgan ishlar.

(Y. Abdullayev, S. Gulyamov, U. Abdurasulov, Y. Abdullayev)

Statistika agentligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi (keyingi o‘rinlarda Jamoatchilik kengashi) raisi Y.A. Abdullayev kun tartibidagi masalalar bilan ishtirokchilarni tanishtirdi.

I. Statistika agentligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi raisi Y. Abdullayevning 2024- yil III choragi yakuni bo‘yicha kengash faoliyatiga doir hisoboti.

Jamoatchilik kengashi raisi Y.A. Abdullayev 2024- yil “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash” yili doirasida tizim oldiga belgilab berilgan topshiriqlar ijrosini sifatli va o‘z muddatida ta‘minlash borasida 2024- yilning III choragida amalga oshirilgan ishlar haqida ma‘lumot berildi.

Xususan, u O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta‘minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmonida belgilangan vazifalar hamda mazkur Farmon bilan Jamoatchilik kengashi nizomiga kiritilgan asosiy o‘zgarishlar borasida to‘xtalib o‘tdi.

Jumladan, davlatimiz rahbarining “Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta‘minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni ijrosini ta‘minlash maqsadida statistika tizimi faoliyatiga oid hisobotlar (davlat sirlari va xizmatda foydalanish uchun mo‘ljallangan ma‘lumotlar bundan mustasno) agentlikning rasmiy veb-saytida muntazam ravishda e‘lon qilib borilmoqda.

Shuningdek, Jamoatchilik kengashi tomonidan turli yo‘nalishlar bo‘yicha tadbirlar tashkil etilib, mavjud kamchiliklar muhokama qilinib, muammolar o‘z vaqtida bartaraf etilishi bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilyapti.

Xususan, quyidagilar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni O‘zbekiston Respublikasining Ochiq ma‘lumotlar portaliga va o‘z rasmiy veb-saytlariga joylashtirib, har chorakda yangilanib borilmoqda:

- amalga oshirilgan davlat xaridlari, shu jumladan to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar bo‘yicha xarid qilinadigan tovarlar;

- mansabdor shaxslarning xizmat safarlari va xorijdan tashrif buyurgan mehmonlarni kutib olish xarajatlari (xizmat safarining yoki tashrifning maqsadi, sutkalik pul, transport va yashash bilan bog‘liq xarajatlar, bundan davlat sirlari va xizmatda foydalanish uchun mo‘ljallangan ma‘lumotlar mustasno);

- o‘zlarining yillik xarajatlar smetasi va uning ijrosi, shu jumladan obyektlarni qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta‘mirlash ishlari, avtomototransport vositalarini sotib olish xarajatlari o‘g‘id ma‘lumotlar.

2024- yilning III choragida Statistika agentligi faoliyati hamda sohaga doir qabul qilingan me‘yoriy-huquqiy hujjatlarning ijrosi va tahliliga qaratilgan matbuot anjumani, turli uchrashuv va konferensiyalar tashkil etildi. Ularda keng jamoatchilik vakillari va ommaviy axborot vositalari xodimlari ishtirok etib, o‘zlarini qiziqtirgan savollarga atroflicha javob olishdi.

Joriy yilning 18- iyul kuni agentlik xodimlari uchun [“Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”](#)gi qonunining mazmun–mohiyatini yoritish yuzasidan tadbir bo‘lib o‘tdi.

[Aholini ro'yxatga olish jarayoniga](#) tayyorgarlik ko'rish maqsadida, hududlarda statistika organlari tomonidan mahalla faollari bilan birgalikda reja-jadval asosida xonadonlarning raqamlanish holatini o'rganish ishlari davom etmoqda.

2024- yilning 30- iyul kuni Statistika agentligida 2024- yil 2-chorak yakunlari bo'yicha agentlikning [kengaytirilgan Hay'at yig'ilishi](#) o'tkazildi. Unda agentlik direktori Begalov Bahodir Abdusalomovich Hay'at yig'ilishini ochib berib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumatining hujjatlari hamda topshiriqlarida Statistika agentligi oldiga qo'yilgan vazifalar va tizimda 2024- yil 2-chorakda amalga oshirilgan ishlar samaradorligi borasida to'xtalib o'tdi.

"O'zbekistonda [ochiq gender ma'lumotlarini takomillashtirish](#) bo'yicha xalqaro ilg'or tajribalarni o'rganish" mavzusida shu yilning 31- iyul kuni xalqaro vebinar bo'lib o'tdi.

2024- yilning 6- avgust kuni Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida agentlik tomonidan "[O'zbekistonda norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash natijalari](#)" mavzusida matbuot anjumani o'tkazildi. Matbuot anjumanida Statistika agentligi rahbari va xodimlari, Xalqaro valyuta jamg'armasi eksperti, respublika vazirlik va idoralari hamda ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdi.

Joriy yilning 7- avgust kuni Statistika agentligi va [Qirg'iz Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi Axborot va kiberxavfsizlik](#) mutaxassislari bilan onlayn uchrashuv bo'lib o'tdi.

Xitoy Xalq Respublikasining ["CAICT" akademiyasi hamda HUAWEI](#) kompaniyasining vakillari bilan shu yilning 13- avgust kuni uchrashuv bo'lib o'tdi.

Agentlikda joriy yilning 19-21- avgust kunlari Turkiya statistika instituti ["TurkStat" ekspertlari tomonidan](#) o'quv seminari tashkil etildi. Tadbirning ochilish marosimida agentlik direktori Begalov Baxodir Abdusalomovich boshchiligidagi statistika tizimi xodimlari hamda Turkiya Statistika instituti Xalqaro savdo statistikasi boshqarma boshlig'i, delegatsiya rahbari Djixat Erdje Ishbashar, Xalqaro tovar savdosi statistikasi guruhi rahbari Eyyup Mexmet Dinch, Xalqaro xizmatlar savdosistatistikasi guruhi rahbari Yusuf Kenan Orxan, Turizm statistikasi guruhi rahbari Ozgyur Volkan Suyer hamda Turkiya hamkorlik va muvofiqlashtirish agentligining O'zbekistondagi vakolatxonasi rahbari Ali Riza Tezjan janoblari ishtirok etishdi. Tadbir yakunida trening ishtirokchilari Turkiya Statistika instituti, Turkiya hamkorlik va muvofiqlashtirish agentligi va Statistika agentligining Xalqaro savdo va turizm yo'nalishida malaka oshirganlik sertifikati bilan taqdirlanishdi.

2024- yilning 23- avgust kuni Statistika agentligi va [UNISEF o'rtasida MIKS loyihasi bo'yicha](#) hamkorlik muhokama qilindi. Uchrashuv davomida Multiindikator klaster kuzatuvlari (MIKK)ning navbatdagi raundini amalga oshirish bo'yicha joriy hamkorlik va rejalar muhokama qilindi.

Joriy yilning 28- avgust kuni [Malayziya Statistika departamenti](#) (DOSM) delegatsiyasi bilan uchrashuv bo‘lib o‘tdi.

2024- yilning 30- avgust kuni agentlikda O‘zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 33 yilligi munosabati bilan “Mustaqillik – eng ulug‘, eng aziz ne‘mat” mavzusida [ma’rifat soati](#) bo‘lib o‘tdi.

Joriy yilning 10- sentabr kuni agentlikda joriy yilning 2–5- sentabr kunlari Latviyaning Riga shahrida Yevropa Ittifoqi va Latviya Respublikasi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik islohotlar agentligi bilan hamkorlikda tashkil etilgan [“Latviya Respublikasi va uning muassasalarida ma’lumotlarni boshqarishni tashkil etish va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqishda ma’lumotlardan foydalanish”](#) bo‘yicha ishchi guruhi tashrifi natijalariga oid taqdimot o‘tkazildi.

2024- yilning 17- sentabr kuni sportning [“Mini-futbol” bo‘yicha “Direktor kubogi”](#) musobaqasiga start berildi. Unda hududiy statistika boshqarmalari xodimlaridan iborat bo‘lgan jamoalar ishtirok etishdi.

Joriy yilning 20- sentabr kuni agentlikda [Xalqaro valyuta jamg‘armasi](#) missiyasi bilan uchrashuv tashkil etildi.

Shuningdek, joriy yilning 23- sentabr kuni agentlikda [Pokiston Islom Respublikasi delegatsiyasi](#) bilan uchrashuv o‘tkazildi.

Jamoatchilik kengashi Statistika agentligi faoliyatini ommaviy axborot vositalarida yoritish bo‘yicha bajarilayotgan ishlarning natijalarini tahlil qiladi, ularning samaradorligini oshirish va mavjud kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan takliflar ishlab chiqadi. Bu borada qilingan ishlarga to‘xtaladigan bo‘lsak, 2024- yil III choragida Axborot xizmati tomonidan Agentlik faoliyati va statistik ko‘rsatkichlarni keng jamoatchilikka yoritish maqsadida quyidagilar amalga oshirildi:

- Agentlik rahbariyati va mutaxassislarining tahliliy maqolalari [gazeta va jurnallarda](#) yoritib borilmoqda;
- qiziqarli statistik ma’lumotlar asosida [infografika roliklari](#) tayyorlanib, respublika telekanallarida efirga uzatilib kelinmoqda;
- Agentlikning, Axborot xizmati rahbarining va agentlik direktorining ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalarida doimiy tarzda 20 dan ortiq statistik ma’lumotlar va yangiliklar yoritilmoqda;
- Agentlikning [rasmiy veb-saytida](#) hafta mobaynida doimiy ravishda 50 tadan ortiq yangiliklar joylashtirilmoqda;
- foydalanuvchilar uchun oylik, choraklik va yillik tahliliy [press-relizlar](#), dokladlar 3 tilda e’lon qilinmoqda;
- Agentlikning [rasmiy veb-sayti](#) hamda [telegram](#) kanallari, [facebook](#), [Instagram](#), [Twitter](#) sahifalari to‘liq yuritilib, foydalanuvchilarning murojaatlariga javob berib borilmoqda;

- har kuni eng ommabop [telegram kanallari](#) va [internet saytlari](#) uchun alohida qiziqarli qisqa topiklar tayyorlanib, keng jamoatchilikka tezkorlik bilan yetkazilishi ta'minlanmoqda;
- doimiy tarzda tashkil etiladigan matbuot anjumanlari, ochiq muloqotlar va davra suhbatlari jarayonlari facebookda onlayn yoritilmoqda;
- Axborot xizmati doimiy tarzda OAV xodimlari, jurnalistlar va blogerlarning savol va murojaatlariga o'z vaqtida javob qaytarib kelmoqda.

Jamoatchilik kengashi yig'ilishi kun tartibidagi 1-masala yuzasidan kengash a'zolari qaror qiladi:

1. Jamoatchilik kengashi raisi Y. Abdullayevning 2024- yil III choragi yakuni bo'yicha kengash faoliyatiga doir hisoboti ma'lumot uchun qabul qilindi.

2. Nufuzli xorijiy tashkilot vakillari bilan tashkil etilayotgan uchrashuvlar haqida o'z vaqtida xabar berilib, soha xodimlarining o'zlashtirayotgan tajribalari haqida muntazam ravishda materiallar tayyorlanib, rasmiy veb-saytda e'lon qilinishi ta'minlasin.

3. Jamoatchilik kengashi tomonidan xodimlar malakasini oshirish bo'yicha tashkil etilayotgan turli tadbir, seminar hamda o'quv kurslarini OAVda keng yoritish ta'minlansin.

II. "2024- yil uchun Statistika dasturi" doirasida 2024- yil III chorak yakuni bo'yicha bajarilgan ishlar to'g'risida A. Ikramovning hisoboti eshitildi.

Dasturga muvofiq, 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida jami **2451 ta** statistika ishlari belgilangan muddatlarda va to'liq hajmda bajarildi, shundan **1770 tasi** Statistika agentligi va uning organlari tomonidan, **681 tasi** rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilari tomonidan va **466 tasi** boshqa vazirlik, idora va tashkilotlar tomonidan bajarildi.

Statistika agentligi tomonidan iqtisodiyot sohalari hamda tarmoqlari rivojlanishi maqsadli kompleks dasturlari monitoringi uchun doimiy ravishda miqdoriy ko'rsatkichlar shakllantirib borildi, hududlar hamda iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanishi holatini kompleks tavsiflovchi tahliliy-statistika ma'lumotlari har oyda Hukumatga taqdim etib borildi.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-dekabr, 2024- yilning yanvar-mart, yanvar-iyun davri uchun O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining dastlabki yakunlari bo'yicha statistika ma'lumotlari tayyorlanib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi, Vazirlar Mahkamasi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Moliya vazirligi, Markaziy bank hamda boshqa vazirlik va idoralarga taqdim etildi.

2023- yilning yanvar-dekabr, 2024- yilning yanvar-mart, yanvar-iyun oylari yakunlari bo'yicha "O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati" axborotnomasi (doklad) o'zbek, rus va ingliz tillarida chop etilib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi, Vazirlar Mahkamasi hamda tegishli vazirlik va idoralarga yuborildi.

Shu bilan birga, 2024- yil yanvar, yanvar-fevral, yanvar-aprel, yanvar-may, yanvar-iyul, yanvar-avgust davrlari uchun "O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati" statistik risolasi 2 tilda (o'zbek, rus) chop etilib, belgilangan ro'yxat asosida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi, Vazirlar Mahkamasi hamda tegishli vazirlik va idoralarga taqdim etildi.

Statistika dasturiga muvofiq bajarilgan ishlar natijalariga ko'ra, shakllantirilgan ochiq statistika ma'lumotlari, axborotnomalar, to'plamlar, press-relizlar ko'rinishida hamda ommaviy axborot vositalari, rasmiy veb-saytlar va ijtimoiy tarmoqlar orqali muntazam ravishda milliy va xorijiy foydalanuvchilar e'tiboriga yetkazib berildi.

Xususan, agentlikning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy Telegram kanalida **3401 ta**, Facebook sahifasida **3401 ta** va Instagram sahifasida **368 ta** yangiliklar e'lon qilindi, Instagram rolklari Agentlikning Youtube kanalidagi rasmiy sahifasida joylashtirib borildi.

Shuningdek, **10 dan ortiq** infografika rolklari statistika faoliyatiga oid **85 dan ortiq** lavhalar "O'zbekiston 24", "Uzreport TV" telekanallarida doimiy tarzda efirga uzatilib kelinmoqda.

Statistika agentligi rasmiy veb-saytining "Rasmiy statistika" bo'limida makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, milliy hisoblar, narx va indekslar, sanoat, qishloq xo'jaligi, aholi turmush darajasi va boshqa qator statistika yo'nalishlari bo'yicha **700 ta** statistika ma'lumotlari to'plamlari e'lon qilindi.

"Халқ сўзи", "Народное слово", "Янги Ўзбекистон", "Правда Востока", "Iqtisodiy gazeta", "Birja", "Ishonch", "Самаркандский Вестник", "Jizzax haqiqati" va boshqa nashrlarda statistika ko'rsatkichlari aks etgan **34 ga yaqin** materiallar chop etildi.

Xalqaro statistika amaliyoti tavsiyalarini inobatga olgan holda, statistika sohasining turli yo'nalishlari bo'yicha 2024- yil yanvar-sentabr oylarida **21 ta** yangi uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqildi va amaldagi **5 ta** uslubiy hujjatlar takomillashtirildi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024- yil 4- martdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-114-son qaroriga muvofiq, amaldagi **68 ta** uslubiy hujjatlar xatlovdan o'tkazildi va ushbu qarorga moslashtirish maqsadida yangi tahrirda qabul qilindi.

Statistika ma'lumotlari sifatini oshirish borasida hisobot topshiruvchi subyektlar o'rtasida profilaktika tadbirlari amalga oshirilmoqda.

Jumladan, 2024- yilning yanvar- sentabr oylarida respublikaning barcha hududlarida **82,6 mingta** respondentlarga tushuntirishlar, **64,9 mingta** yangi tashkil etilgan respondentlar profilaktika tadbirlari davomida qamrab olindi, **116,8 mingdan** ortiq bukletlar tarqatildi va **2541 marta** ommaviy axborot vositalarida chiqishlar tashkil etildi.

Ochiq ma'lumotlar portali faoliyatini takomillashtirish, ma'lumotlar sifatini oshirish va ko'lamini kengaytirish borasida amalga oshirilgan ishlar natijasida, portalda e'lon qilinayotgan ma'lumotlar to'plamlari soni **5 mingdan** oshdi.

Jumladan, Statistika agentligi tomonidan portalda e'lon qilinayotgan statistika ma'lumotlari to'plamlari soni **2198 tani** tashkil qildi.

Statistika agentligi huzuridagi Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar institutida tizim xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish dasturiga asosan va yangi kiritilgan o'quv kurslari asosan 2024- yil yanvar- sentabr oylarida **26 ta** o'quv kurslarida **705 nafar** xodimlarning malakasi oshirildi.

Institut tomonidan 2024- yilda amalga oshiriladigan statistik tadqiqotlar dasturiga muvofiq, **8 ta** tadqiqot ishi tasdiqlangan bo'lib, shundan yanvar-sentabr holatiga **4 ta** tadqiqot ishi ishlab chiqildi.

Jumladan:

“Qurilish ishlari narxlari indeksini hisoblash amaliyotini xalqaro uslubiyatlar asosida takomillashtirish” bo'yicha tadqiqot ishi Narxlar statistikasi boshqarmasiga;

“BMT Statistika komissiyasining yillik sessiyalariga takliflar tayyorlash” bo'yicha takliflar ishlab chiqilib, Statistika ishlarini tashkil etish va metodologiya boshqarmasi hamda Xalqaro hamkorlik va axborot almashuv boshqarmasiga;

“Asosiy kapital iste'molini hisoblash buyicha uslubiy tavsiya” Makroiqtisodiy indikatorlar va milliy hisoblar boshqarmasiga;

“Gender statistikasi ko'rsatkichlari, uni shakllantirish manbalari va uslubiyati buyicha uslubiy tavsiya” Demografiya, mehnat va gender statistikasi boshqarmasiga taqdim etildi.

Hozirgi kunda Xalqaro standartlashtirish tashkilotining ISO-3534-1 standartini o'zbek tiliga tarjima qilish (Umumiy statistika atamalari va ehtimollar nazariyasida qo'llaniladigan atamalar) bo'yicha ishlar amalga oshirilmoqda.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda, mazkur qaror doirasida “Ma'muriy ma'lumotlarni yetkazib beruvchilarning ma'lumotlar bazalarini Statistika agentligining axborot tizimiga integratsiya qilish va ma'lumotlarni taqdim etish reja-jadvali”da belgilangan ishlarni bajarilishi yuzasidan yanvar- sentabr oylarida quyidagi ishlar amalga oshirildi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023- yil 11- sentabrdagi PQ-299-son “Shaharsozlik faoliyati sohasida davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish hamda 2023-2027- yillarda aholi punktlarining shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish dasturlarini tasdiqlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga asosan 2024- yil yanvar oyida Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish Respublika markazi axborot tizimi va Statistika agentligining “Statistika” integrallashgan axborot tizimi o‘rtasida doimiy aholi soni bo‘yicha ma‘lumotlarni o‘zaro almashinuvi to‘g‘risida texnologik yo‘riqnoma tasdiqlanib, integratsiya yo‘lga qo‘yildi.

2. Raqamli texnologiyalar vazirligi hamda Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki direksiyasi bilan birgalikda 2024- yil mart oyida “Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki rezidenti bo‘lgan tashkilotlar faoliyati to‘g‘risidagi statistika ma‘lumotlarini (Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri va tumanlar (shaharlar) kesimida) integratsiya orqali taqdim etishni yo‘lga qo‘yish” bo‘yicha ikki tomonlama texnologik yo‘riqnoma tasdiqlanib, integratsiya yo‘lga qo‘yildi.

«O‘zbekneftegaz» AJ bilan birgalikda 2024- yil may oyida energetika tarmog‘ining statistikasi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarini integratsiya orqali taqdim etishni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha ikki tomonlama texnologik yo‘riqnoma tasdiqlanib, integratsiya yo‘lga qo‘yildi;

Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi bilan birgalikda 2024- yil may oyida korxona va tashkilotlarning mehnat ko‘rsatkichlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlari integratsiya orqali taqdim etishni yo‘lga qo‘yish” bo‘yicha ikki tomonlama texnologik yo‘riqnoma tasdiqlanib, integratsiya yo‘lga qo‘yildi;

Tovar-xom ashyo birjasi hamda Raqamli texnologiyalar vazirligi bilan birgalikda 2024- yil iyun oyida birja savdolariga qo‘yiladigan tovarlarning narxlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarini integratsiya orqali taqdim etishni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha uch tomonlama texnologik yo‘riqnoma tasdiqlanib, integratsiya yo‘lga qo‘yildi.

Personallashtirish agentligi bilan birgalikda 2024- yil iyun oyida O‘zbekiston Respublikasidan chiqib ketgan fuqarolarning soni, jinsi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarini integratsiya orqali taqdim etishni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha ikki tomonlama texnologik yo‘riqnoma tasdiqlanib, integratsiya yo‘lga qo‘yildi.

Yuqoridagilar bilan birga, Vazirlar Mahkamasining “2025- yil uchun Statistika dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori loyihasi ham ishlab chiqildi.

Qaror loyihasi 2 ta ilovadan iborat, uning 1-ilovasi “2025- yil uchun Statistika dasturi” bo‘lib, mazkur dastur 2 ta qism, 5 ta bo‘lim, 6 ta kichik bo‘lim, 48 ta bob va 90 ta paragrafni o‘z ichiga oladi.

Qarorning 2-ilovasi bilan “Ma‘muriy ma‘lumotlarni yetkazib beruvchilarning ma‘lumotlar bazalarini “Elektron hukumat” tizimining idoralararo integratsiyalashuv

platformasi orqali Statistika agentligining axborot tizimiga integratsiya qilish va ma'lumotlarni taqdim etish reja jadvali" taklif etilmoqda.

Qaror loyihasi vazirlik va idoralar bilan normativ-huquqiy hujjatlar loyihasini ishlab chiqish va kelishishning yagona elektron tizimi project.gov.uz (ID-2563) orqali tegishli vazirlik va idoralar bilan kelishish uchun kiritildi.

Shu bilan birga, Vazirlar Mahkamasining "2025- yil uchun Statistika dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori loyihasi 2024- yil oktabr oyida jamoatchilik kengashiga kelishish uchun kiritildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024- yil 4- martdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-114-son qarori doirasida amalga oshirilgan ishlar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024- yil 4- martdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-114-son qarori tasdiqlanganligi munosabati bilan uni ijrosini sifatli va samarali tashkil etish bo'yicha Statistika agentligi va barcha quyi tizim tashkilotlarida belgilangan faoliyatning ustuvor yo'nalishlari amalga oshirilishi hamda maqsadli ko'rsatkichlar (indikatorlar)ga erishilishini ta'minlash maqsadida 2024- yil 5- martda 23-buyruq qabul qilingan va nazorat reja tasdiqlangan.

Nazorat rejaga muvofiq quyidagi ishlar amalga oshirildi:

"Rasmiy statistikani tayyorlovchilar tomonidan statistika kuzatuvlarini autsorsing asosida tashkil etish amaliyotini joriy etish to'g'risida" Vazirlar Mahkamasining qarori loyihasi ishlab chiqilgan va qaror loyihasi rasmiy statistikani tayyorlovchilar bilan normativ-huquqiy hujjatlar loyihasini ishlab chiqish va kelishishning yagona elektron tizimi project.gov.uz (ID-95750) orqali kelishilgan hamda Vazirlar Mahkamasiga 2024- yil 30- apreldagi 01/1-04-10-98-sonli kuzatuv xati orqali yuborilgan (Vazirlar Mahkamasining takliflari asosida qayta ishlangan loyiha 2024- yil 8- iyul 01/1-04-09-126-sonli xat bilan yuborilgan. Loyiha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi e'tirozlari asosida qayta ishlanib, 2024- yil 28- sentabr kuni normativ-huquqiy hujjatlar loyihasini ishlab chiqish va kelishishning yagona elektron tizimi loyiha.adliya.uz (ID-2369) orqali idoraviy kelishish uchun tegishli vazirlik va idoralarga kiritilgan);

"O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Vazirlar Mahkamasining qarori loyihasi ishlab chiqilgan. Qaror loyihasi mafaatdor vazirlik hamda idoralar bilan normativ-huquqiy hujjatlar loyihasini ishlab chiqish va kelishishning yagona elektron tizimi project.gov.uz (ID-95847) orqali kelishilgan va 2024- yil 14- mayda 01/1-04-10-107-sonli kuzatuv xati orqali Vazirlar Mahkamasiga yuborilgan (loyiha O'zbekiston

Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi e'tirozlari asosida qayta ishlanib, 2024- yil 30- sentabr kuni normativ-huquqiy hujjatlar loyihasini ishlab chiqish va kelishishning yagona elektron tizimi loyiha.adliya.uz (ID-2392) orqali idoraviy kelishish uchun tegishli vazirlik va idoralarga kiritilgan);

“O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonunlariga tegishli o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni loyihasi ishlab chiqilgan. Loyiha manfaatdor vazirlik va idoralar bilan normativ-huquqiy hujjatlar loyihasini ishlab chiqish va kelishishning yagona elektron tizimi project.gov.uz (ID-96879) orqali kelishildi. Qonun loyihasi 2024- yil 6- mayda 01/1-23-04-41-sonli kuzatuv xati orqali Vazirlar Mahkamasiga yuborilgan (*loyiha O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi e'tirozlari asosida qayta ishlanib, 2024- yil 27- sentabr kuni normativ-huquqiy hujjatlar loyihasini ishlab chiqish va kelishishning yagona elektron tizimi loyiha.adliya.uz (ID-2361) orqali idoraviy kelishish uchun tegishli vazirlik va idoralarga kiritilgan);*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish, shuningdek, ba’zilarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblash to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni loyihasi ishlab chiqilgan. Loyiha manfaatdor vazirlik va idoralar bilan normativ-huquqiy hujjatlar loyihasini ishlab chiqish va kelishishning yagona elektron tizimi project.gov.uz (ID-97082) orqali kelishilgan va 2024- yil 17- mayda 01/1-23-04-46-sonli kuzatuv xati orqali Vazirlar Mahkamasiga yuborilgan (*loyiha O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi e'tirozlari asosida qayta ishlanib, 2024- yil 27- sentabr kuni normativ-huquqiy hujjatlar loyihasini ishlab chiqish va kelishishning yagona elektron tizimi loyiha.adliya.uz (ID-2352) orqali idoraviy kelishish uchun tegishli vazirlik va idoralarga kiritilgan);*

“Statistika dasturini hisoblash metodikasi” loyihasi ishlab chiqildi va yagona elektron tizimi project.gov.uz (ID-96041) orqali 2024- yil 3- aprelda 01/1-04-10-77-sonli kuzatuv xati bilan Adliya vazirligiga huquqiy ekspertizadan o‘tkazish uchun yuborilgan. Adliya vazirligi tomonidan loyiha o‘rganib chiqilib, tegishli e’tirozlar va takliflar berilgan.

Adliya vazirligining e’tirozlari va takliflari chuqur o‘rganib chiqildi va loyiha qayta ishlanib, 2024- yil 8- iyunda 01/1-04-10-124-sonli kuzatuv xati orqali Iqtisodiyot va moliya vazirligiga kelishish uchun yuborildi.

Shu bilan birga, mazkur qaror doirasida:

Statistik ma’lumotlarni ishlab chiqish jarayonlarini namunaviy modeli (GSBPM – The generic Statistical Business Process Model) asosida ishlab chiqilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining Statistika ma’lumotlarini ishlab chiqishning milliy modelining **I. Statistika ma’lumotlariga bo‘lgan**

ehtiyolarni o‘rganish bosqichi va uning **jarayonlarini** milliy statistika tizimiga joriy qilish maqsadida “Foydalanuvchilarning statistika ma’lumotlariga bo‘lgan ehtiyojlarini o‘rganish bo‘yicha Namunaviy tartib” ishlab chiqildi (2024- yil 22- maydagi 109-son buyruq);

statistika ma’lumotlarini tarqatish va taqdim etish ishlarini yanada takomillashtirish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining Rasmiy statistikani tarqatish idoraviy siyosati ishlab chiqildi (2024- yil 28- iyundagi 149-buyruq);

Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Rasmiy statistikada sifatni ta’minlashning milliy tayanch prinsiplari bo‘yicha qo‘llanma”si (NQAF) talablari asosida rasmiy statistika sohasida sifatni boshqarish ishlarini tizimli tashkil etish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining sifat sohasidagi siyosati ishlab chiqildi (2024- yil 28- iyundagi 150-buyruq).

Mazkur qarorda belgilangan vazifalardan kelib chiqib, joriy yilning avgust oyida Statistika agentligi markaziy apparatida “Central Asia Certification” sertifikatlash tashkilotining xalqaro auditorlari tomonidan Agentlik faoliyatining xalqaro standartlarga muvofiqligi yuzasidan xalqaro sertifikatlash auditori o‘tkazildi.

Audit yakunlari bo‘yicha sentabr oyida xalqaro sertifikatni taqdim etilishi to‘g‘risida qaror qabul qilindi.

Buning natijasida, Statistika agentligining statistika faoliyati, shu jumladan, rasmiy statistikani tayyorlash va tarqatish faoliyati “ISO 9001:2015 sifat menejmenti tizimi” xalqaro sertifikatsiya jarayonidan muvaffaqiyatli o‘tdi.

Shu munosabat bilan, 2024- yilning 4- oktabr sanasida MDHning II Xalqaro Statistika forumining yakunida Statistika agentligida sifat menejmenti tizimini joriy qilganligi bo‘yicha ISO 9001 xalqaro sertifikati topshirildi.

Ushbu sertifikatni qo‘lga kiritish uchun Statistika agentligi tomonidan qo‘yidagi ishlar amalga oshirildi:

birinchidan, xususiy konsalting kompaniya yollagan holda Statistika agentligi boshqaruv tizimining auditori va tahlili amalga oshirildi;

ikkinchidan, Statistika agentligi tizimida 20 nafar mutaxassis xodimlarining ISO 9001:2015 standarti bo‘yicha malakalari oshirildi va natijasi bo‘yicha sertifikatlar bilan ta’minlandi;

uchinchidan, konsalting kompaniya ko‘magida Statistika agentligining “Milliy sifatni boshqarish qo‘llanmasi” ishlab chiqildi va tizimga joriy etildi;

to‘rtinchidan, amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida statistika organlari va uning quyi tizim tashkilotlari faoliyatida statistika ma’lumotlarini tayyorlash (yig‘ish, qayta ishlash, tahlil qilish) va tarqatish jarayonlarida sifatni ta’minlashga erishilmoqda.

**Jamoatchilik kengashi yig‘ilishi kun tartibidagi 2-masala yuzasidan
kengash a’zolari qaror qiladi:**

1. “2024- yil uchun Statistika dasturi” doirasida 2024- yil III chorak yakuni bo'yicha bajarilgan ishlar to'g'risida hisobot va jamoatchilik kengashiga “2025- yil uchun Statistika dasturi” loyihasini ma'qullash uchun kiritilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. “2025- yil uchun Statistika dasturi” va uni tasdiqlash bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori loyihalari ma'qullansin.

3. Milliy statistika tizimini yanada rivojlantirish yuzasidan kelgusida bajarilishi lozim bo'lgan ishlar bo'yicha aniq rejalar ishlab chiqilsin.

4. Statistika dasturining bajarilishi va statistika sohasidagi metodologiyani takomillashtirish bo'yicha tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqilsin.

III. Xalqaro hamkorlik va axborot almashinuvi hamda Milliy barqaror rivojlanish maqsadlari bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar bo'yicha Z. Ziyayevning hisoboti eshitildi.

Xalqaro tashkilotlar bilan sohani rivojlantirish, ilg'or tajribalar va zamonaviy uslubiy tavsiyalarni amaliyotga joriy etish yuzasidan yaqindan hamkorlik hamda mamlakat ko'rsatkichlarini xalqaro axborot bazalarida aks ettirish yuzasidan axborot almashinuvi aloqalari yo'lga qo'yildi.

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida xalqaro tashkilotlarning **26 ta** savolnomalari, jumladan, BMT Statistika bo'limining **3 ta**, YuNESKO statistika institutining **3 ta**, MDH Davlatlararo Statistika Qo'mitasining **8 ta**, Xalqaro avtomobil yo'llari federatsiyasining **1 ta** va boshqa xalqaro tashkilotlarning **11 ta** savolnomalari to'ldirilib, taqdim etildi.

Bundan tashqari, **3 ta** xalqaro ma'lumotlar bazalaridagi, xususan XVJning kengaytirilgan Ma'lumotlarni tarqatishning umumiy tizimi doirasida, MDH va “COMTRADE” ma'lumotlar bazalarida O'zbekistonning statistika ko'rsatkichlari o'z vaqtida yangilandi.

Jumladan, tovarlar savdosi bo'yicha BMTning “COMTRADE” axborot bazasida **3585 ta** tovar turlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi ma'lumotlarini har oyda yangilab borilishi ta'minlandi.

XVJning kengaytirilgan Ma'lumotlarni tarqatishning umumiy tizimi (e-GDDS) doirasida statistika ko'rsatkichlari **5 ta** toifa bo'yicha har oyda, **4 ta** toifa bo'yicha har chorakda muntazam yangilab borilmoqda.

Bundan tashqari, XVJning kengaytirilgan Ma'lumotlarni tarqatishning umumiy tizimidan (e-GDDS) Ma'lumotlarni tarqatishning maxsus standartiga (SDDS) o'tish yuzasidan zarur tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish yo'nalishida monitoringni yo'lga qo'yish masalalarida

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022- yil 21- fevraldagi “2030- yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” 83-son qarori qabul qilingan.

Ushbu qarorning 1-ilovasi bilan **2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalari** sifatida O'zbekiston uchun dolzarb hisoblangan **16 ta** milliy maqsad va BRMning **126 ta** milliy vazifalar ro'yxati tasdiqlangan.

*Ma'lumot uchun: Global miqyosda **17 ta** maqsad **169 ta** vazifa va **232 ta** indikator tasdiqlangan.*

Shuningdek, mazkur qarorning 2-ilova bilan tasdiqlangan, 2022–2026- yillarda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarga samarali erishish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi ijrosini ta'minlash maqsadida, Statistika agentligi hamda Barqaror rivojlanish maqsadlarining milliy indikatorlari bo'yicha idoralararo ishchi guruhi tomonidan quyidagi ishlar amalga oshirildi:

Manfaatdor vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Statistika Komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan Barqaror rivojlanish maqsadlari global indikatorlar tizimi asosida Milliy Barqaror rivojlanish maqsadlari indikatorlarini takomillashtirib bormoqda;

O'zbekiston uchun dolzarb hisoblangan **190 ta** indikator tasdiqlangan, shundan, **152 tasi** global indikatorlar bilan to'liq mos keladi, **28 tasi** proksi indikator va **10 tasi** milliy indikator hisoblanadi;

Barqaror rivojlanish maqsadlari bo'yicha erishilgan natijalarni kuzatib borish va ushbu sohada mamlakatdagi mavjud vaziyat to'g'risida dolzarb ma'lumotlarni foydalanuvchilarga taqdim etish maqsadida, 2019- yilda O'zbekiston Respublikasida Milliy barqaror rivojlanish maqsadlari ko'rsatkichlari bo'yicha veb-sayt ishlab chiqilgan;

Vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda **143 ta** Milliy barqaror rivojlanish indikatorlari bo'yicha ma'lumotlar shakllantirilib veb-saytga joylashtirib borilmoqda;

Agentlik tomonidan "O'zbekiston Respublikasida Milliy barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish bo'yicha yillik statistik to'plam" 2019- yildan boshlab har yili o'zbek, rus va ingliz tillarida nashr etilib vazirlik va idoralar hamda O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan xalqaro tashkilotlarga taqdim etilmoqda, shuningdek, ushbu to'planning elektron shakli (nsdg.stat.uz) veb saytga joylashtirib borilmoqda;

UNICEF tashkiloti ko'magida 2021-2022- yillarda O'zbekiston Respublikasida onalar va bolalar turmush tarzini o'rganish bo'yicha Multiindikator klaster kuzatuv (MICS) o'tkazildi. Natijada **160 dan** ziyod muhim sotsial ko'rsatkichlari bilan bir qatorda Barqaror rivojlanish maqsadlarining **29 ta** indikator ko'rsatkichlari shakllantirilgan;

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Osiyo va Tinch okeani iqtisodiy va ijtimoiy komissiyasi(ESCAP)ning SDG Tracker platformasida O'zbekiston Respublikasi sahifasi ochilib, barqaror rivojlanish maqsadlari indikator ko'rsatkichlari bilan to'ldirib borilmoqda;

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Statistika bo'limining veb sahifasida Barqaror rivojlanish maqsadlari bo'yicha ilg'or tajribalarga ega **90 ga** yaqin davlatlar qatorida O'zbekiston Respublikasi ham qayd etilgan.

Barqaror rivojlanish maqsadlari indikatorlari sifatini ta'minlashda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining rasmiy statistika sifatini ta'minlashning milliy asosiy tamoyillariga muvofiq amalga oshirib, xalqaro tavsiyalar asosida takomillashtirib borilmoqda.

Jamoatchilik kengashi yig‘ilishi kun tartibidagi 3-masala yuzasidan kengash a’zolari qaror qiladi:

1. Z. Ziyayevning xalqaro hamkorlik va axborot almashinuvi bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar haqidagi hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish yo‘nalishida amalga oshirilgan ishlar ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Qishloq xo‘jaligi sohasida ro‘yxatdan o‘tkazish tadbirlarini tashkil etish bo‘yicha tashkil etilayotgan chora-tadbirlarni jamoatchilikka yetkazish hamda OAVda keng yoritish ishlari tashkil etilsin.

IV. Aholini ro‘yxatga olishga tayyorgarlik ko‘rish masalalari yuzasidan amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha Ro‘yxatga olish jarayonlarini tashkil etish va o‘tkazish boshqarmasi boshlig‘i Berdiqulov Qobil G‘ulamovich ma’lumot berdi.

O‘zbekiston Respublikasining “Aholini ro‘yxatga olish to‘g‘risida”gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024- yil 4- martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-114-son qaroriga muvofiq respublikamizda aholini ro‘yxatga olishga tayyorgarlik ko‘rish ishlari davom etmoqda.

O‘tgan davr mobaynida Statistika agentligi tomonidan aholini ro‘yxatga olishning maxsus veb-sayti (aholi.stat.uz) ishlab chiqildi va amaliyotga joriy qilindi, o‘tkazilgan ochiq tanlov asosida aholini ro‘yxatga olish tadbirining logotipi va shiori (“Yangi O‘zbekistonning bir qismi bo‘li”) tayyorlandi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Aholishunoslik bo‘yicha jamg‘armasining O‘zbekistondagi vakolatxonasi bilan hamkorlikda xorijiy ekspertlarni jalb qilgan holda xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribalari asosida aholini ro‘yxatga olishning normativ-huquqiy va uslubiy asoslari ishlab chiqildi. Jumladan:

- Aholini ro‘yxatga olish uchun zarur bo‘ladigan kartografik materiallarni tayyorlashda foydalaniladigan **texnik shartlar**;

- Aholini ro‘yxatga olishga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish tartibi to‘g‘risida **nizom**;

- Aholini ro‘yxatga olishning tuman va shaharlar bo‘yicha tashkiliy rejasini tuzish **tartibi**;

- Aholini ro‘yxatga olishning **dasturi** va **savolnoma varag‘i shakllari**;

- Aholini ro‘yxatga olish varag‘i shakllarini to‘ldirish bo‘yicha **yo‘riqnoma**;

- Planshet qurilmalari yordamida aholini ro‘yxatga olish bo‘yicha **qo‘llanma**;

- Aholini ro‘yxatga olish jarayonlariga jismoniy va yuridik shaxslarni jalb etish va ularga haq to‘lash tartibi to‘g‘risida **nizom**;

- Aholini ro'yxatga olishning yakuniy ma'lumotlaridan foydalanish tartibi to'g'risidagi **nizom**;

- Aholini ro'yxatga olishning shaxsga doir ma'lumotlariga ishlov berish tartibi to'g'risidagi **nizom**;

- Aholini ro'yxatga olish varaqlari va boshqa ro'yxatga olish hujjatlarining saqlanishi (shu jumladan vaqtincha saqlanishi), yo'q qilinishi tartibi to'g'risida **nizom**.

Aholini ro'yxatga olishning birlamchi ma'lumotlarini yig'ish, qayta ishlash, tahlil qilish va natijalarini shakllantirish imkonini beruvchi "**Aholini ro'yxatga olish**" axborot tizimi ishlab chiqilib, amaliyotga joriy qilindi.

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2020- yil 11- noyabrdagi 710-son qaroriga asosan **2021-yilda** Andijon viloyatining Xo'jaobod tumani, Toshkent viloyatining Yuqorichirchiq tumani, Xorazm viloyatining Xiva shahri hamda Toshkent shahrining Yashnobod tumanida **sinov tariqasida** aholini ro'yxatga olish tadbiri o'tkazildi.

Sinov tariqasida aholini ro'yxatga olish jarayonlariga **1 885 nafar** xodimlar shartnoma asosida jalb qilindi. Ularning **100 nafari** ro'yxatga olish uchastkalarida ishlovchi xodimlar, **254 nafari** instruktorlar, **254 nafari** statsionar ro'yxatga oluvchilar va **1 277 nafari** uyma-uy yurib ro'yxatga oluvchi xodimlarni tashkil etdi.

Ro'yxatga olish ishlariga jalb etilgan shaxslarning eng ko'p ulushi ishsiz fuqarolar **759 nafar (40,3 foiz)**, mahalla fuqarolar yig'inlari xodimlari **384 nafar (20,4 foiz)**, o'qituvchilar **280 nafar (14,9 foiz)**, shifokorlar **143 nafar (7,6 foiz)**, nafaqaxo'rlar **87 nafar (4,6 foiz)**, talabalar **49 nafar (2,6 foiz)**, ko'ngillilar **18 nafar (1,0 foiz)** va **165 nafar (8,6 foiz)** boshqa soha vakillari hissasiga to'g'ri keldi.

Sinov jarayonlari uch xil usulda, ya'ni **internet** orqali respondentlar tomonidan savolnomalarni mustaqil ravishda to'ldirish, **qog'oz** va **planshet** usullarida ro'yxatga oluvchi xodimlar tomonidan respondentlar bilan yuzma-yuz so'rov o'tkazish orqali o'tkazildi. Planshet usulida aholini ro'yxatga olish qog'oz usuliga nisbatan qulayligi, tezkorligi va iqtisodiy jihatdan samaraliroq ekanligini ko'rsatdi.

O'n ikki kun davomida o'tkazilgan ro'yxatga olish jarayonlarida qog'oz usulida bir nafar ro'yxatga oluvchi o'rtacha **350** tadan **400** tagacha shaxslarni ro'yxatga olgan bo'lsa, planshet usulida esa o'rtacha **500** tadan **750** tagacha to'g'ri keldi.

Sinov tariqasida aholini ro'yxatga olish jarayonlarida ishtirok etish uchun **11** kishidan iborat **xalqaro kuzatuv missiyasi** vakillari mamlakatimizga tashrif buyurib, respublikamizning to'rtta hududida sinov tariqasida aholini ro'yxatga olish jarayonlariga ko'rilgan tayyorgarlik ishlari va uni o'tkazish jarayonlari bilan tanishdi.

O'zbekistonda sinov tariqasida aholini ro'yxatga olishga ko'rilgan tayyorgarlik ishlari va uni o'tkazish jarayonlari xalqaro kuzatuv missiyasi vakillari tomonidan **ijobiy baholanib**, aholini ro'yxatga olish jarayonlarini yanada sifatli va zamonaviy usullardan foydalangan holda o'tkazish yuzasidan **taklif** va **tavsiyalar bildirildi**.

Jumladan, ro'yxatga olish savolnomalarini milliy mentalitetga moslashtirgan holda yanada takomillashtirish, planshet qurilmalaridan keng foydalangan holda ro'yxatga olishni tashkil etish, internet tarmog'i orqali ro'yxatga olish tizimini soddalashtirish va shu kabi yo'nalishlar bo'yicha taklif va tavsiyalar bildirildi.

Shundan kelib chiqib, mamlakatimizda 2025-2026- yillarda o'tkaziladigan aholini ro'yxatga olish jarayonlarini **internet** tarmog'i orqali va **planshet** qurilmalaridan keng foydalangan holda o'tkazish rejalashtirilmoqda.

Shuningdek, 2022- yil avgust oyida respublikamizdagi barcha mahallalarning xaritalari joyidagi holatga **mosligi** o'rganilib, aholi yashayotgan turar joylar hamda noturar binolar **ro'yxati** tuzib chiqildi. Mazkur ishlarga respublika bo'yicha jami **6 148** nafar shaxslar registrator sifatida shartnoma asosida ishga jalb etildi.

O'rganishlar natijasida hududlarda jami **1,1** millionga yaqin xonadon raqamlanmaganligi, **3** mingdan ortiq xonadon raqamlari mahalla xaritalaridagi raqamlarga mos kelmaganligi, **181** mingdan ortiq yangi qurilgan bino va xonadonlar mahalla xaritalariga kiritilmaganligi, **30** mingga yaqin buzilgan bino va xonadonlar xaritadan chiqarilmaganligi va **24** mingdan ortiq ko'chalarning nomi o'zgargan bo'lsada, lekin xaritada o'zgartirilmaganligi aniqlandi.

Aniqlangan barcha kamchiliklar kadastr organlari tomonidan hududiy statistika organlari bilan birgalikda bartaraf etilib, xarita to'liq **yangilandi**.

Respublika bo'yicha jami **9** mingdan ortiq mahallalarning xaritalari to'liq yangilanib, ikki nusxadan qog'oz shaklida chop ettirildi. Hududlar bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasida **424** ta, Andijon viloyatida **889** ta, Buxoro viloyatida **544** ta, Jizzax viloyatida **301** ta, Qashqadaryo viloyatida **802** ta, Navoiy viloyatida **330** ta, Namangan viloyatida **792** ta, Samarqand viloyatida **1126** ta, Surxondaryo viloyatida **721** ta, Sirdaryo viloyatida **237** ta, Toshkent viloyatida **1020** ta, Farg'ona viloyatida **1062** ta, Xorazm viloyatida **530** ta, Toshkent shahrida **579** ta mahallalarning xaritalari to'liq yangilandi.

Aholini ro'yxatga olishga tayyorgarlik ko'rish jarayonlarining keyingi bosqichida yangilangan mahalla xaritalari asosida hududlar bo'yicha aholini ro'yxatga olishning tashkiliy rejalari ishlab, ro'yxatga olish jarayonlariga jalb etiladigan xodimlar soni hisoblab chiqiladi.

Mahalla xaritalarining to'liq va to'g'ri bo'lishi aholini ro'yxatga olishni sifatli tashkil etilishi va sarflanadigan mablag'lardan samarali foydalanilishini ta'minlashda asosiy omillardan biri bo'lib xizmat qiladi.

2024- yil yanvar-senrabr oylarida aholini ro'yxatga olishga puxta tayyorgarlik ko'rish bo'yicha quyidagi ishlar amalga oshirildi:

2024- yil mamlakatimizda "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili", deb e'lon qilinishi munosabati bilan aholi o'rtasida aholini ro'yxatga olish tadbirini nechog'lik muhimligi va uni o'tkazishga yoshlar, fuqarolar hamda tadbirkorlarning

o‘zlari ham qatnashish imkoniyatiga ega ekanligi to‘g‘risida targ‘ibot-tashviqot ishlari olib borilmoqda.

Aholini ro‘yxatga olish bo‘yicha targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borish bo‘yicha yanvar-sentabr oylari davomida hududiy statistika organlari tomonidan mahalliy telekanallarda **69 ta** ko‘rsatuvlar, mahalliy radiokanallarda **178 ta** eshittirishlar tashkil etildi, turli veb-saytlarda **1 132 ta** tezis va maqolalar joylashtirildi, gazeta va jurnallarda **370 ta** maqolalar chop etildi va oliy o‘quv yurtlarida jami **201 ta** va maktablarda jami **834 ta** seminar va davra suhbatlari tashkil etildi.

Shu bilan birga, xodimlarning bilim va ko‘nikmalarini oshirish maqsadida hududiy statistika organlari xodimlari **har haftada** videokonferensaloqa orqali savol javoblar, **har oyda** test sinovlaridan o‘tkazilib borilmoqda.

Raqamlanmagan uy va xonadonlar hamda nomi o‘zgargan ko‘chalarga yangi nom belgilarini o‘rnatish bo‘yicha mahalla raislari va faollari bilan joyiga chiqqan holda o‘rganilib, haftalik ma‘lumotlar shakllantirilib, agentlikning haftalik apparat yig‘ilishida muhokama qilib borilmoqda.

2024- yil 1- yanvar holatiga mavjud **520** mingga yaqin raqamsiz uylarning **468,1** mingtasi (**90,0** foiz) **2024-yil yanvar-sentabr** oylarida joyiga chiqib o‘rganildi. O‘rganish natijasida **354,1** ming uylar raqamlangani ma‘lum bo‘lib, bu o‘rganilgan uylarning **75,6** foizini tashkil etadi. Qolgan **113,4** mingta (**24,2** foiz) xonadonlarga haligacha raqam belgilari **ilinmaganligi** ma‘lum bo‘ldi.

Shuningdek, o‘rganilgan jami **45,7** mingta ko‘chalarning **2,2** mingtasiga (**4,6** foizi) ko‘cha nom belgilari **o‘rnatilmaganligi** aniqlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024- yil 4- martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-114-son qarori bilan tasdiqlangan “Rasmiy statistika sohasida islohotlarni chuqurlashtirish va tizim faoliyatini transformatsiya qilish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi”ga muvofiq respublikamizda aholini ro‘yxatga olishni o‘tkazish 2025-2026-yillarda amalga oshirilishi belgilandi.

Qarorga muvofiq, quyidagi ishlar amalga oshirilmoqda:

Aholini ro‘yxatga olishning birlamchi ma‘lumotlar bazasi hajmining kattaligi sababli, uning natijalarini jadval ko‘rinishida shakllantirishda **STATA** amaliy dasturiy paketidan foydalanilmoqda. Statistika agentligining 2024 -yil 26- yanvardagi 9-son buyrug‘i muvofiq, “STATA” amaliy dasturiy paketi litsenziyasi xarid qilindi va uning asosida ro‘yxatga olish natijalarini aks ettiruvchi chiquvchi jadvallar namunalari shakllantirilmoqda.

Bugungi kunga qadar **300** dan ortiq chiquvchi jadvallar mazkur dastur yordamida tayyorlandi. Ushbu dastur asosan statistik tahlil qiluvchi dastur bo‘lib, statistik ko‘rsatkichlarni shakllantirishda qulay, tezkor va tahlillarni jadval, reyting va grafik ko‘rinishda taqdim eta oladi.

Aholini ro'yxatga olishning ahamiyati va mazmun-mohiyatini aholining keng ommasiga tushuntirish bo'yicha targ'ibot-tashviqot ishlarida foydalanish uchun videorolik, banner, flayer va bukletlar namunalari tayyorlanmoqda.

Sinov tariqasida aholini ro'yxatga olish natijalari va xalqaro ekspertlarning tavsiyalaridan kelib chiqib, aholiga yanada qulay bo'lishini ta'minlash maqsadida quyidagi ro'yxatga olish savolnomalari takomillashtirilmoqda:

1-shakl "Turar joyining xususiyatlari va unda yashovchilar ro'yxati";

2-shakl "Shaxsga oid savolnoma";

3-shakl "O'zbekiston Respublikasiga vaqtincha kelgan chet el fuqarolari uchun savolnoma";

4-shakl "Aholining ayrim toifalariga nisbatan shaxsga doir ma'lumotlarni yig'ish bo'yicha savolnoma";

5-shakl "Vaqtincha turgan joyi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar uchun nazorat varaqasi".

2021- yilda amalga oshirilgan sinov jarayonlarida internet tarmog'i orqali va planshet qurilmalari yordamida ro'yxatga olishda yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etish maqsadida "Aholini ro'yxatga olish" axborot tizimi aholi va foydalanuvchilarga yanada qulay bo'lishi uchun takomillashtirilmoqda.

Jumladan, internet tarmog'i orqali ro'yxatdan o'tish jarayonlari soddalashtirildi, elektron savolnomalarni aholi uchun yanada sodd va tushunarli bo'lishini ta'minlash maqsadida har bir savolga **izohlar** kiritildi. Shuningdek, mazkur axborot tizimida internet tarmog'i orqali ro'yxatdan o'tgan aholi to'g'risida tezkor ro'yxat **shakllantirish** va ushbu ro'yxatlarni ro'yxatga oluvchi xodimlarning planshet qurilmalariga elektron shaklda yetkazishni ta'minlovchi **alohida funktsiya** yaratildi.

2024- yil avgust oyida Qoraqalpog'iston Respublikasining Taxiotosh, Andijon viloyatining Ulug'nor, Buxoro viloyatining Buxoro, Jizzax viloyatining Do'stlik, Qashqadaryo viloyatining Nishon, Navoiy viloyatining Konimex, Namangan viloyatining Mingbuloq, Samarqand viloyatining Oqdaryo, Surxondaryo viloyatining Termiz, Sirdaryo viloyatining Guliston, Toshkent viloyatining Zangiota, Farg'ona viloyatining Yozyovon, Xorazm viloyatining Xiva va Toshkent shahrining Mirobod tumanlari bo'yicha tajriba tariqasida aholini ro'yxatga olishning tashkiliy rejasini tuzib chiqildi.

Tuzib chiqilgan tashkiliy reja ma'lumotlariga asosan **41** ta ro'yxatga olish uchastkalari, **295** ta instruktorlik uchastkalari va **2039** ta hisob uchastklarini tashkil etish zarurligi ma'lum bo'ldi. Mazkur uchastkalarga ishga jalb etilishi lozim bo'lgan shaxslar soni jami 2795 nafarni tashkil etdi.

Mazkur tajriba tariqasida tuzib chiqilgan tashkiliy rejalar 2026- yilda butun respublikamiz bo'yicha amalga oshirilishi rejalashtirilgan aholini ro'yxatga olish tadbirini sifatli tashkil etish uchun muhim tadbir bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, 2024- yil 4- martdagi PQ-114-son qarori bilan tasdiqlangan “Rasmiy statistika sohasida islohotlarni chuqurlashtirish va tizim faoliyatini transformatsiya qilish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi”ning 6-bandi ijrosini ta‘minlash maqsadida, “O‘zbekiston Respublikasida 2026- yilda aholini ro‘yxatga olishni o‘tkazish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni va “O‘zbekiston Respublikasida 2026- yilda aholini ro‘yxatga olishga tayyorgarlik ko‘rish, uni o‘tkazish, natijalarini tahlil qilish va e‘lon qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori loyihasi ishlab chiqildi.

Ushbu farmon va qaror loyihalari tegishli vazirlik, tashkilotlarga 2024- yil 19-sentabrda 01/3-20-03-50, 01/3-20-03-51-sonli xatlar asosida (id-2169; id-2172) project.gov.uz yagona elektron tizimi orqali muhokamaga yuborildi. Hozirda vazirlik, tashkilotlardan kelib tushgan taklif va e‘tirozlar tahlil qilinmoqda.

Jamoatchilik kengashi yig‘ilishi kun tartibidagi 4-masala yuzasidan kengash a‘zolari qaror qiladi:

1. Aholini ro‘yxatga olish ishlariga tayyorgarlik bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar bo‘yicha ro‘yxatga olish jarayonlarini tashkil etish va o‘tkazish boshqarmasi boshlig‘i Berdiqulov Qobil G‘ulomovichning hisoboti ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Aholini ro‘yxatga olish ishlariga puxta tayyorgarlik ko‘rish samaradorligini oshirish hamda mazkur jarayonlardan keng jamoatchilikni xabardor qilish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilsin.

3. Aholini ro‘yxatga olish ishlariga tayyorgarlik ko‘rish bo‘yicha ishlab chiqilayotgan chora-tadbirlarni amaliyotga joriy etish, turli tadbir va o‘quv kurslarini tashkil etish masalasi nazoratga olinsin.

V. Statistika agentligi faoliyatida korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida olib borilayotgan ishlar holati tahlili.

Statistika agentligi tizimida 2024- yilning III choragi davomida korrupsiyani oldini olish va ushbu illatga nisbatan jamoada murosasiz muhitni yaratish borasida Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat xizmati bosh mutaxassisi Melikmurotov Botir Nabijonovich atroflicha ma‘lumot berib o‘tdi.

Xususan, agentlik va hududiy quyi tuzilmalarida korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish tadbirlari har chorak davomida doimiy o‘tkazilib kelinmoqda. 2024-yilning **III choragi davomida** agentlikning markaziy apparati va hududiy statistika organlarida korrupsiyani oldini olish va ushbu illatga nisbatan murosasiz ko‘nikmalarni shakllantirish maqsadida 160 tadan ortiq targ‘ibot va tashviqot tadbirlari o‘tkazildi.

Statistika agentligida korrupsiyani oldini olish bo‘yicha ishlab chiqilgan ichki idoraviy hujjatlar.

Statistika agentligi tomonidan 2021- yil 29- dekabrda 127-son buyrug‘i asosida Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat xizmati tomonidan (siyosatlar, reglamentlar, standartlar, yo‘riqnomalar va nizom) tasdiqlandi.

Shuningdek, 2023- yil 5-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash to‘g‘risida” **2-son buyrug‘i** Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat xizmati tomonidan ishlab chiqildi va ushbu buyruqqa asosan agentlik markaziy apparatida doimiy ravishda tizimda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash maqsadida Ishchi guruh shakllantirilib, ularning aniq vazifalari belgilandi.

Agentlikning 2023- yil 20- iyundagi 37-son buyrug‘iga asosan, xodimlarning tashabbusi bilan korrupsiyaviy omillarga nisbatan murosasiz munosabatini bildirib, shu kunning o‘zida rahbariyat nomiga bildirishnoma bilan yoki og‘zaki ravishda murojaat qilganligi yuzasidan rag‘batlantirish reglamenti tasdiqlandi. Ushbu buyruq ijrosini ta‘minlash maqsadida Agentlikning barcha quyi bo‘g‘inlarida tushuntirish va targ‘ibot ishlari olib borilmoqda.

Agentlikning 2023- yil 30- oktabrdagi 74-son buyrug‘iga asosan, tizimda korrupsiyani oldini olish va xodimlarda ushbu illatlarga nisbatan murosasiz ko‘nikmalarni shakllantirish maqsadida umumiy va maxsus o‘qitish tartibi belgilandi.

Agentlikning 2024- yil 27- martdagi 33-son buyrug‘iga asosan, statistika organlari xodimlarining xizmat safarlari va boshqa rasmiy tadbirlarda olingan sovg‘alarni baholash va tashkilot balansiga topshirish tartib-taomillari ishlab chiqildi.

Xavf-xatarlarni baholash.

Markaziy apparat va hududiy statistika boshqarmalarida 2022- yilda xavf-xatarlarni baholashga oid “Davlat statistika qo‘mitasi, hududiy statistika organlarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uslubiyotiga 1-ilova” **korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi**, “Davlat statistika qo‘mitasi, hududiy statistika organlarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uslubiyotiga 2-ilova” **Korrupsiya xavf-xatariga eng ko‘p moyil bo‘lgan lavozimlar ro‘yxati**, “Davlat statistika qo‘mitasi, hududiy statistika organlarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uslubiyotiga 3-ilova” **Statistika agentligi va uning hududiy statistika organlari korrupsiyaga qarshi kurashish dasturi** kabi ilovalar markaziy apparat va hududiy statistika organlar tomonidan baholab to‘ldirilgan hamda chora-tadbirlar ishlab chiqilgan.

Statistika agentligining Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat xizmati tomonidan 2023- yil uchun hududiy statistika boshqarmalaridan Uslubiyotning 14-bandiga binoan, hududiy statistika boshqarmalarining Korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi boshqarmaning Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha mas‘ullari tomonidan ishlab chiqilib, javob xati olingan. Hududiy statistika organlaridan yig‘ilgan javob xatlariga asosan takliflar ishlab chiqilmoqda hamda korrupsiya xavf-xatarga ega bo‘lgan lavozim va bo‘linmalar ustidan nazorat olib borilmoqda. Xususan, ularning huquqiy savodxonligini oshirish va ish faoliyati ochiqligi va raqamlashtirish ishlari yo‘lga qo‘yilmoqda. Masalan, Davlat xaridlari bo‘yicha ma’lumotlar har chorak yakuni bo‘yicha agentlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirib borilmoqda.

Amalga oshiriladigan korrupsiyaga qarshi kurashish tartib-taomillari, manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish.

Agentlikning 2021- yil 29- dekabrda 127- son buyrug'i 3-ilovasi bilan "Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish bo'yicha Nizom" tasdiqlangan. Nizomga asoslanib, hududiy statistika boshqarmalarida deklaratsiya Kadrlar boshqarmasi tomonidan xodimlarga tanishtirilib, imzolangan holda tegishli yig'ma jildga tikilgan. Inson resurslarini boshqarish boshqarmasi tomonidan berilgan ma'lumotga asosan, markaziy apparat xodimlari o'rtasida jami 16 ta yaqin qarindoshligi bor holatlar aniqlandi, ulardan hech biri bevosita bo'ysunish holati kuzatilmaganligi sababli ularga tushuntirish ishlari berildi.

Markaziy apparat va hududiy statistika organlari kesimida manfaatlar to'qnashuvining yillik deklaratsiyasi kadrlar boshqarmasi tomonidan xodimlarga tanishtirilib, imzolangan holda to'plangan.

Korrupsiyaga qarshi shartlarni agentlik bilan tuziladigan barcha shartnomalarga kiritish va korrupsiyaviy holatlar yuzasidan kelib tushgan murojaatlar bo'yicha.

Korrupsiyaga qarshi kurashishda agentlik va boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida tuziladigan shartnomalarga o'zgartirish kiritish bo'yicha samarali ishlar amalga oshirildi. Masalan, xodimlarni ishga qabul qilishda mehnat shartnomalariga hamda korxona va tashkilotlar bilan tuziladigan konsalting shartnomalariga korrupsiyaga oid alohida band qo'shildi hamda amaliyotga tadbiiq etildi.

Agentlik va hududiy statistika organlari kesimida tashkilot tizimida kontragent tomonidan korrupsiyaga qarshi qoidalar buzilishi sababli shartnomalarni bekor qilish bo'yicha tahliliy ma'lumotlar joriy yilning III choragida aniqlanmadi.

Joriy yilning III choragi davomida Statistika agentligida jami bolib jismoniy va yuridik shaxslardan 916 ta murojaatlar kelib tushgan. Ammo korrupsiyaviy jarayonlarga taalluqli bo'lgan birorta ham holatlar mavjud emas.

Ishga nomzodlarni tekshirish.

Agentlik tizimiga ishga kirish uchun nomzodlar: markaziy apparat va hududiy statistika tizimiga ishga kirish uchun (<https://vacancy.argos.uz/>) orqali ochiq tanlov asosida qabul qilinib kelinmoqda hamda nomzodlar ustidan o'tkazilgan tekshiruvlar bo'yicha barcha ishga qabul qilingan xodimlar nazoratdan o'tkazilgan.

Ta'lim va kommunikatsiya.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha markaziy apparat va hududiy statistika organlari kesimida o'quv-seminar yig'ilishlari (bevosita) o'tkazib kelinmoqda.

Statistika agentligi huzuridagi Kadrlarni malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar institutida doimiy ravishda tizim xodimlari malaka va ko'nikmalari oshirilib kelinmoqda. Korrupsiyaga qarshi kurashishga bag'ishlangan dars soatlari yo'lga qo'yilgan.

2024- yilning III choragida 1500 dan ortiq Statistika agentligi va uning quyi tizimi xodimlari Korrupsiyaga qarshi kurashish va murosasiz munosabatda bo'lishga bag'ishlangan darslarda ishtirok etishdi. 2024- yilning 9 oyi davomida 782 nafar xodim malaka o'quv kurslarida qatnashishdi, kurslar davomida 60 nafar xodimlar korrupsiyaga qarshi murosasiz ko'nikmalarini shakllantirish uchun 12 soatlik o'quv darsini o'tishdi.

2024- yil III chorakda statistika tizimida 1600 dan ortiq korrupsiyani oldini olishga qaratilgan ko'rgazmali tarqatma materiallar ya'ni bukletlar, flayerlar va boshqa qo'llanmalar tarqatildi.

Korrupsiyaviy xatti-harakatlar va huquqbuzarliklar to'g'risidagi xabarlar.

Hisobot davrida xodimlarning korrupsiyaviy xatti-harakatlari, manfaatlar to'qnashuvi, korrupsiyaga qarshi boshqa qonunbuzarliklar bilan bog'liq masalalar to'g'risida xabarlar markaziy apparat va hududiy statistika organlari kesimida aloqa kanallari orqali kelib tushmagan.

Statistika agentligining 2021- yil 29- dekabrda 127-son buyrug'i 9-ilovasi bilan **"Hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo'yicha Nizom"** tasdiqlangan. Ushbu, Nizomga asoslanib hududiy statistika boshqarmalarida tizimli ravishda o'rganish ishlari olib borilib, 2024- yilning III choragi davomida korrupsiyaviy xavf-xatarlar aniqlanmagan.

Xodimlarni ishga qabul qilish jarayonlari to'liq elektronlashtirilgan bo'lib, tashkil etilgan maxsus ishchi komissiya nazorati ostida test va suhbat jarayonlari amalga oshirilib kelinmoqda.

Xodimlar tomonidan joriy yilning III choragi davomida korrupsiyaviy xatti-harakatlar holatlari aniqlanmagan.

Ishonch telefonlari domiy ravishda nazoratga olingan va bugungi kunga qadar korrupsiyaviy omillar to'g'risida birorta ham ma'lumotlar kelib tushmagan.

Monitoring va nazorat.

Hududiy statistika organlari kesimida tekshiruvlar o'tkazish, Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat xizmatining 2024- yil uchun tasdiqlangan reja grafikka muvofiq, amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 12- yanvardagi 81-son qarori ijrosi yuzasidan hududiy statistika organlari tomonidan amalga oshirilgan ishlar tahlil qilindi. Shunga ko'ra;

Namangan viloyati statistika boshqarmasi, Xorazm viloyati statistika boshqarmasi va Jizzax viloyati statistika boshqarmalarining korrupsiyani oldini olish va ushbu illatga nisbatan xodimlarda murosasiz ko'nikmalarni shakllantirish borasida amalga oshirilgan ishlari namunali ekanligi sababli mas'ul xodimlardan B. Ismatullayev, I. Otajonov, G'. Q'oshoqovlar rag'batlantirish uchun taklif etiladi.

Shu bilan birga, Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasi, Andijon viloyati statistika boshqarmasi, Toshkent viloyati statistika boshqarmalari boshliqlari o'z vaqtida qo'l ostidagi xodimlar bilan sohada korrupsiyaviy jarayonlarni oldini olish bo'yicha yetarli darajada ishni tashkil etmaganligi sababli ularga nisbatan tegishli intizomiy jazo choralari qo'llanishi maqsadga muvofiq.

Aniqlangan qoidabuzarliklar va ularga ta'sir choralari.

Joriy yilning III chorak yakuni bo'yicha agentlik va hududiy statistika organlarida korrupsiyaga oid qoidabuzarliklar aniqlanmadi. Qoidabuzarliklar to'g'risidagi ma'lumotlar uchun axborot manbalari, ishonch telefoni bevosita monitoring va nazoratga olingan.

Xulosa.

Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat xizmati tomonidan sohada korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish bo'yicha doimiy ravishda agentlik rahbariyatiga asosli takliflar kiritib kelinmoqda.

Ma'lumot tariqasida, Davlat organlari va tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash natijalariga asosan, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining ekspertlari tomonidan 2023- yil yakuni tahlillariga ko'ra, korrupsiyaviy holatlarni oldini olish bo'yicha o'tkazilgan targ'ibotlar va bu borada amalga oshirilgan ishlar natijasi uchun Statistika agentligining "E-anticor.uz" platformasiga kiritilgan ma'lumotlari "84" ball bilan "Yaxshi" deb baholandi. Ushbu "e-anticor.uz" platformasiga kiritilgan ma'lumotlarni tahlil qilgan holda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida "Yo'l xaritasi" tasdiqlandi.

**Jamoatchilik kengashi yig'ilishi kun tartibidagi 5-masala yuzasidan
kengash a'zolari qaror qiladi:**

1. Agentlikda 2024- yilning III choragi davomida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyati to'g'risida Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat xizmati bosh mutaxassisi Melikmurotov Botir Nabijonovichning hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha tashkil etilayotgan tadbir va seminarlarning Axborot xizmati tomonidan OAVda keng yoritilishi ta'minlansin.

3. Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat xizmati tomonidan korrupsiyaviy xavf-xatarlarning oldini olish bo'yicha aniq taklif va tavsiyalar ishlab chiqilib, amaliyotga keng joriy etilsin.

VI. Ijro intizomi bo'yicha III chorak yakuni bo'yicha bajarilgan ishlar.

Statistika agentligi tizimida murojaatlar bilan ishlash, aholi bilan uchrashish, sayyor qabullarni o'tkazish, jismoniy va yuridik shaxslarni qabul qilish, ularning yozma, og'zaki va elektron murojaatlarini qonunchilik talablari, asosida ko'rib chiqishni ta'minlash, belgilangan vazifalarning ijrosini to'liq va sifatli bajarilishini nazorat etish yuzasidan chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rahbariyati tomonidan 2024- yil I, II- yarim yillikda Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahar va viloyatlardagi shahar va tumanlarda jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari uchun tashkil etiladigan sayyor qabul jadvaliga muvofiq, tuman va shaharlarda 27 ta sayyor qabul uchrashuvlari tashkil etildi.

Ushbu qabullarda 682 nafardan ortiq jismoniy va yuridik shaxslar ishtirok etgan bo'lib, murojaatlarning aksariyati joyida o'zyechimini topgan, muddat talab etiladigan

203 ta ogʻzaki murojaatlar qonunchilikda belgilangan tartibda roʻyxatga olingan hamda yozma javob xatlari murojaat mualliflariga oʻz muddatlarida taqdim etilgan.

Statistika agentligiga 2024- yil 9 oyi davomida jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushgan murojaatlarning jami soni 916 tani tashkil etib, ularning 310 (33,8 %) nafar jismoniy shaxslar, 606 (66,2 %) nafar yuridik shaxslar hissasiga toʻgʻri keldi.

Shundan, 129 ta murojaat Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi orqali, 405 tasi Statistika agentligining elektron pochталari orqali, 299 tasi ogʻzaki murojaatlar, 83 tasi toʻgʻridan-toʻgʻri kelib tushgan.

Kelib tushgan murojaatlarning mazmuni yuzasidan qilingan tahlillarga koʻra, 494 tasi (53,9 %) respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish statistik koʻrsatgichlari maʼlumotlarni taqdim etish yuzasidan, 164 tasi (17,9 %) oʻz faoliyatini amalga oshirish uchun amaliy yordam olish yuzasidan, 131 tasi (14,3 %) korxona va tashkilotlarning yagona davlat registr bazasiga kiritish, chiqarish, statistik kodlar berish masalasi yuzasidan, 85 tasi (9,3 %) statistik hisobotlarni toʻldirish va taqdim etish yuzasidan, 31 tasi (3,4 %) ish staji, ish haqi, tashkilot nomining oʻzgarishi toʻgʻrisidagi arxiv maʼlumotlari va amaliy yordam soʻralgan, 3 tasi (0,3 %) takliflar, 8 tasi (0,9 %) boshqa masalalar yuzasidan murojaatlar tashkil etilgan.

Statistika agentligiga kelib tushgan murojaatlarning asosiy qismi Toshkent shahridan 497 ta murojaatlarni (54,3 %) tashkil etgan. Shuningdek, Toshkent viloyatidan 73 ta (8,0 %), Samarqand viloyatidan 40 ta (4,4 %), Qoraqalpogʻiston Respublikasidan 37 ta (4,0 %), Jizzax viloyatidan 36 ta (3,9 %), Namangan viloyatidan 33 ta (3,6 %), Sirdaryo viloyatidan 31 ta (3,4 %), Surxondaryo viloyatidan 31 ta (3,4 %), Fargʻona viloyatidan 30 ta (3,3 %), Buxoro viloyatidan 28 ta (3,1 %), Andijon viloyatidan 22 ta (2,4 %), Xorazm viloyatidan 22 ta (2,4 %), Qashqadaryo viloyatidan 21 ta (2,3 %), Navoiy viloyatidan 10 ta (1,1 %), boshqa hududdan 5 ta (0,5 %) murojaatlar kelib tushgan.

Statistika agentligiga kelgan murojaatlar boʻyicha jami 916 ta murojaatlardan 826 ta murojaatlarga chora koʻrilgan, 65 ta murojaatlarga tushuntirish berilgan, 19 ta murojaat tegishliligi boʻyicha vakolatli davlat organiga yuborilgan, 25 ta murojaatlar koʻrib chiqilmoqda.

Kelib tushgan murojaatlar Statistika agentligi rahbariyati tomonidan nazoratga olinib, ularning barchasiga oʻz muddatlarida tegishli masʼul ijrochilar tomonidan yozma ravishda javob xati yuborilgan.

**Jamoatchilik kengashi yigʻilishi kun tartibidagi 6-masala yuzasidan
kengash aʼzolari qaror qiladi:**

1. Statistika agentligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi tomonidan ijro intizomini ta'minlash borasida amalga oshirayotgan ishlarni yanada samarali tashkil etish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilsin.

2. Jamoatchilik kengashi mas'ul kotibi (U. Abdurasulov)ga Jamoatchilik kengashining mazkur yig'ilish bayoni nusxasini Statistika agentligiga yetkazilishini ta'minlash vazifasi yuklatilsin.

3. Jamoatchilik kengashi yig'ilish bayoni qarori ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

**Jamoatchilik kengashi
mas'ul kotibi**

U. Abdurasulov